

Odamni qo‘l barmoq izlariga ko‘ra identifikatsiya qilish metodikasi

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010 yil 12-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida: «Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu - qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillash-tirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda»^{54 55} deb ta’kidladilar. Ma’lumki, ichki ishlar idoralarining faoliyati huquqni muhofaza qilish idoralarining mustaqil instituti sifatida huquqiy kafolatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz Konstitusiyasi bu borada inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishni ta’minlashning huquqiy asosi, barchamiz uchun zarur dasturiy hujjatdir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi jinoyat-chilikka qarshi kurash olib borayotgan mansabdor shaxslar va barcha organlardan qonunchilik hamda huquq-tartibotga, inson huquqlari va O‘zbekiston fuqarolarining qonuniy manfaatlariga qat’iy rioya qilishning ta’minlanishini talab qiladi.

O‘zbekiston islohotlar yo‘lidan dadil odimlar bilan bormoqda, uning maqsadi huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini yaratishdir. Bu to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni aytgan edi: «...jamiyat huquqiy asl fuqaroviy bo‘ladi, qachonki unda fuqarolarning erkinliklari va huquqlari muhofaza qilinsa, har bir odam ishongan bo‘lishi kerakki, ularning huquqlarini qonunsizlikdan, byurokratlardan himoya qiladigan organlar mavjuddir»⁵⁶.

Yuqoridagi talablarning amalga oshirilishida eng muhim vazifa sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izi» dan tez ochish, samarali tergov qilish va aybdorlarni o‘z vaqtida jinoiy javobgarlikka tortishdan iboratdir.

Bu vazifaning hal etilishida, mohiyati jinoyat ishiga tegishli bo‘lgan dalillarni to‘plash, ulardan foydalanish, texnik-kriminalistik vositalarni

· ИИВ Академияси 4-курс тингловчиси.

⁵⁵ Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. - Т., 2010. - Б. 56.

⁵⁶ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. - Т., 1999. - Б. 47.

to'g'ri qo'llashdan iborat bo'lgan tezkor-tergov ishlarining texnik-kriminalistik ta'minoti muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham ekspert-kriminalist na faqat kriminalistik texnika sohasida chuqur bilimga ega bo'lishi, balki kriminalistik masalalarni hal etishda nazariy bilimlarni to'g'ri qo'llay olishi, ashyoviy dalillarni to'plash va tekshirish mahoratini egallagan bo'lishi lozim.

Yuqoridagi masalalarni hal etish O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatlarining asosiy maqsadidir va o'z navbatida ekspert-kriminalistika faoliyatning barcha sohalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularning oldini olish, jinoyatning ochilishi va tergov qilishning samarali o'tishi, ushbu faoliyat subyektlarining kasbiy mahorati darajasiga bog'liqdir. Kasbiy mahorat darajasini esa birinchi navbatda qidiruv-izlanish faoliyati subyektlarining ta'lim jarayonida va amaliy mashg'ulotlarda olgan maxsus bilimlari belgilaydi. Ularning maxsus bilimlari tarkibiga yurisprudensiya sohasidagi kriminalistika va boshqa turdagi ilmiy bilimlar kiradi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov «... bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur», deb ta'kidlaganlar⁵⁷. Ushbu jihatdan mazkur mavzuni o'rganish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ekspert-kriminalistik xizmatlari oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajarishlari uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Ichki ishlar idoralarining jinoyatlarni ochish va tergov qilish bo'yicha asosiy vazifalaridan biri ilmiy metodlar va texnik vositalarni jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotiga tatbiq etish hisoblanadi. Ushbu vosita va metodlar orasida kriminalistikaning, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va qidirishni yanada samaraliroq bo'lishiga imkon beradigan yutuqlari muhim o'rin tutadi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy mahoratining va ular tomonidan jinoyatlarni ochishning ilmiy metodlarini egallash malakalarining o'sishi, jinoyatchini fosh qilish uchun turli izlar va ashyoviy dalillar, jumladan hodisa sodir bo'lgan joylarni ko'zdan kechirishda aniqlanadigan qo'l barmoq izlaridan unumli foydalanish holatlarini ortishiga olib keladi.

Qo'l barmoq izlari muhim qidiruv materiali hisoblanadi. Ular yordamida jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinuvchi shaxslarni aniqlash va tekshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlar majmuasini amalga oshirishga

⁵⁷ *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. - Т., 2010. - Б. 56.

imkon yaratadi. Papilyar naqshlarning yaqqol ifodalangan individual- ligi (alohidaligi) shaxslarni kriminalistik aynanligini aniqlashning asosida yotuvchi o‘ta muhim xususiyat hisoblanadi.

Jinoyatlarni ochish va tergov qilishning dastlabki bosqichida, jinoyatchilarni qidirish maqsadida qo‘l barmoq izlarini tadqiq etish bir necha yo‘nalishlarida olib boriladi.

Bir tomondan - bu hodisa sodir bo‘lgan joyda aniqlangan qo‘l barmoq izlarini IIBlarning ekspert-kriminalistik xizmatlaridagi daktiloskopik hisoblardan va markazlashtirilgan (IIV EKM) daktiloskopik kartotekalaridan tekshirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan - barmoq izlari, muayyan doiradagi shaxslarning papilyar naqshlari bilan bevosita taqqoslash, ushbu shaxslar doirasini yanada toraytirish hamda alohida shaxslarni aniqlashda vujudga keladigan versiyalarni tekshirishda foydalanilishi mumkin

Qo‘l barmoq izlarining ekspertizasida hal etiladigan savollarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi - izlarning xususiyatlari hamda ularni hosil bo‘lish mexanizmi va sharoitlarini aniqlashga qaratilgan savollar, jumladan:

- taqdim etilgan buyumlarda qo‘l barmoq izlari mavjudmi, agar mavjud bo‘lsa, ular identifikasiya (shaxsni aniqlash)ga yaroqlimi?
- obektdagi iz qaysi qo‘lning qay barmog‘idan qoldirilgan?
- barmoq izlari qanday harakat (tegib o‘tish, ushlab) natijasida qoldirilgan.

Ikkinchi - identifikasion masalalar bilan bog‘liq savollar:

- qoldirgan izlariga ko‘ra aniq bir shaxsni aniqlash;
- bir necha jinoyat bo‘yicha qoldirilgan izlar aynan bir shaxs tomondan qoldirilganligini aniqlash.

Daktiloskopik ekspertizalarni o‘tkazishda, tadqiqot obyektlari bo‘lib, hodisa sodir bo‘lgan joydan olingan izlarning o‘zi, ularning nusxalari, quyma-nusxalari yoki fotosuratlarini, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi shaxslarning qo‘l barmoq va kaft izlari bo‘lgan taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalar bo‘lishi mumkin.

Agar izlar hech qanday o‘zgrish va ishlov berishlarsiz tadqiqotga taqdim etilsa, bunday izlar eng ma‘qul izlar hisoblanadi. Buning uchun izlarni to‘liq saqlanishi choralari ko‘rilishi lozim.

Ayblanuvchi va gumon qilinuvchilarning barmoq izlari odatda daktiloxaritalarga olinadi, jinoyatga aloqador boshqa shaxslar, jabrlanuvchilar yoki boshqa begona shaxslarning barmoq izlari esa toza oq qog‘ozga olinadi.

Daktiloskopik ekspertizalarni o‘tkazishda, tadqiqot obyektlari bo‘lib, hodisa sodir bo‘lgan joydan olingan izlarning o‘zi, ularning nusxalari, quyma-nusxalari yoki fotosuratlarini, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi

shaxslarning qo‘l barmoq va kaft izlari bo‘lgan taqqoslash tadqiqotlari uchun namunalari bo‘lishi mumkin.

Izlarning namunalariga majburiy yagona talab - papillary chiziq-larning aniqligi va to‘liqligi talabi qo‘yiladi. Izlarning aksi aniq, tirnoqning bir chetidan ikkinchi chetigacha, naqshning asosidan to egiluvchi oqim-gacha bosib aylantirish usulida olingan bo‘lishi lozim. Izlarning yaxshi ifodalanmagan va noto‘liq akslari ekspertiza (tadqiqot) tayinlagan shaxsga qaytarilishi va yangi, talab darajasidagi akslar talab etilishi lozim. Kerak bo‘lganda, naqshlarning muayyan tegishli sohalarning izlari so‘rab oli-nishi kerak, masalan, naqshlarning distal soha (tirnoqning yuqori chetiga yaqin soha)larining izlari.

Izlarning namunalariga majburiy yagona talab - papillary chiziq-larning aniqligi va to‘liqligidir. Yuqorida ko‘rsatilgan materiallarni sifatli tayyorlab olib, tergovchi daktiloskopik ekspertiza tayinlash haqida qaror chiqaradi hamda materiallar va qarorni ekspert-kriminalistik xizmatga yuboradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yugay, Lyudmila. "Biometric identification as an innovation in criminalistics." *Society and innovations, Special 07* (2022): 289.
2. Югай, Л. Ю. "Биометрическая идентификация личности по изображению лица человека: опыт Республики Узбекистан." (2023).